

## **Xorijiy tillarni o'rganishda lug'at boyligini oshirish usullari**

*Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar*

*Muallif: Boyqarayeva Fayoza*

*Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi*

**Annotatsiya.**Chet tillarini mukammal o'rganayotlar uchun yangi so'zlarni yodlash juda muhim. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganish, asosan yangi so'zlarni yod olish jarayoni muammolari hamda ularni bartaraf etishning samarali yechimlari o'z aksini topgan. Shuningdek, so'zlarni oson eslab qolishning metodikalari haqida ham o'tkazilgan tadqiqotlar asosida bir qator fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.**Intellekt, til, metod, flesh, kartochka, uslub, kreativ, ravonlik, leksik, sufiks, prefiks, ildiz.

**Abstract.**Memorizing new words is very important for excellent foreign language learners. In this article, the problems of learning English, mainly the process of memorizing new words, and effective solutions for their elimination are reflected. Also, based on the researches, a number of opinions were expressed about the methods of easy memorization of words.

**Key words.**Intellect, language, method, flash, card, style, creative, fluency, lexicon, suffix, prefix, root.

Yillar davomida inson intellekti o'rganilib kelinayotgan bo'lsada, uning xususiyatlari hanuzgacha to'liq ochib berilganicha yo'q. Intellekt -bu avvalo, insonning aqliy taraqqiyoti, idrok etish qobiliyatidir.Uning yaxshi rivojlanishi chet tillarini o'rganish bilan uzviy bog'liqlik kasb etadi. Logann Wolfgang fon Gyote ta'kidlaganidek: "Chet tillar haqida hech narsa bilmaydigan odam o'z tili haqida ham hech narsa bilmaydi." Hozirgi kunda chet tillarini o'rganish texnologiyalar asrining asosiy talablaridan biriga aylandi.Bundan kelib chiqadiki, insoniyat chet

tillarini o'zlashtirish jarayoni davomida bir qancha qiyinchiliklar bilan yuzlashmoqda. Ulardan eng asosiysi esa yangi so'zlarni yodlashdir. So'z boyligi har bir tilning asosi hisoblanadi. Yangi so'zlarni yodlash nafaqat xotirani kuchaytiradi, balki fikrlash qobiliyatini ham o'stiradi. Yangi so'zlarni yodlashda uning o'rganayotgan tilingizdagi ta'rifini to'liq tushunib yodlashingiz lozim. Ko'pchilik yangi so'zlarni yodlashda eski metodlarni qo'llaganliklari uchun ko'zlagan natijalariga erishishga qiynalishadi.

Masalan, so'zlarni shuntchaki og'zaki qaytarish va qayta-qayta o'qish orqali yodlash, bu usul hozirgacha saqlanib qolgan bo'lsa ham unchalik samarali emas. Biz boshqa so'z yodlash metodlarini ko'rib chiqamiz:

- Yangi so'zlar ishtirokida gaplar tuzish (ushbu usulda gapda ifodalangan holat va ish-harakatlarni o'quvchi o'zining tasavvurida jonlantirishi va yangi so'zni yodlayotganda uni tasavvurdagi muayyan manzara bilan bog'lash muhimdir).
- Shuningdek, kartochkalardan foydalanish yoki flesh -karta usuli (bu ham eng ommabop va ishlatish uchun qulay yodlash usuli hisoblanadi).
- So'zni o'rganganda unga his-tuyg'u qo'shib yodlash (bu usul o'ta samaralidir, negaki inson his-tuyg'ular bilan yashaydi)[1,24].

Yuqorida samarali metodlardan faqatgina 3 tasini misol uchun keltirib o'tildi. Ammo vaqt o'tgan sari yangi uslub va metodlar paydo bo'lmoqda. Bular bilan bir qatorda agar biz so'z yodlashga kreativ yondashsak hamda yuqoridagi metod va uslublarni qo'llagan holda yanada kreativroq yangiliklarni kiritsak ushbu usullarning samaradorligi oshadi. Shuningdek, so'z boyligi aktiv va passiv bo'ladi, ya'ni siz so'zni shuchaki yodda saqlashingiz bu passiv so'z boyligi, yodlagan so'zingizni gapda to'g'ri qo'llay bilsangiz u aktiv so'z boyligiga aylanadi.

Yangi so'zlarni yodlash bu leksik manbani yaxshilashning eng oson qismidir. Buning uchun matnlarni o'qish, bilmagan so'zlarni tanlash va ularni lug'at daftariga ko'chirish kifoya. Ingliz tilida "yozish" va "gapishtirish" ko'nikmalarida, ayniqsa, sizning lug'at boyligingiz ingliz tilida muloqot qobiliyatingizni baholashga yordam beradi. So'zlashuvda sizning til bilish darajangizni baholash

uchun aniq belgilangan mezonlardan foydalanadilar.

4 mezon quyidagilardir:

- Ravonlik va muvofiqlik;
- Leksik manba;
- Grammatik diapazon va aniqlik;
- Talaffuz.

"Leksik manba" nima va u nima uchun muhim? Leksik manba nimani anglatadi? Oddiy so'z bilan aytganda, leksik resurs bu- lug'atdir.

Yangi so'zlarni topish va esda saqlab qolish uchun 5 maslahat.

1-maslahat: Shaxsiy lug'at ro'yxatini tuzing. Bugun yangi so'z yoki iborani o'rgandingizmi? 3-4 kundan keyin eslay olasizmi? Agar yo'q bo'lsa, yozing. Daftarda o'rgangan barcha yangi so'z va iboralarning shaxsiy lug'at ro'yxatini tuzing.

2 -maslahat: Gapirayotganda yoki insho yozayotganda bir so'zni qayta-qayta ishlatalish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun, har doim yangi so'z o'rganganingizda ushbu so'zning sinonimlarini ham izlab toping va yod oling.

3 -maslahat: Nafaqat sinonimlar, balki antonimlar bilan ham ishlashni o'rganing.

4 -maslahat: Boshqa manbalardan so'zlarni o'rganing. Kitoblar va internet yaxshi so'zlarni topishingiz mumkin bo'lgan yagona joy emas. Shuningdek, siz gazeta maqolalari, jurnallar, filmlar va boshqa ko'p narsalar kabi boshqa joylardan yaxshi so'zlarni olishingiz mumkin.

5 -maslahat: Professional yordam oling. Yo'lingizni oson qilishda o'qituvchining kuchini hech qachon unutmang. Siz o'qituvchi bilan yakkama-yakka mashg'ulotlarni qilishingiz yoki ingliz tili dasturiga onlayn yoki shaxsan qo'shilishingiz mumkin. Chet tilini o'rganayotganda, sizning so'z boyligingizni doimiy ravishda to'ldirish juda muhim. Biroq hamma ham bunga erisha olmaydi [3,22].

1. Birlashtiruvchi tarmoqlar yarating.

Bizning miyamiz biz o'qigan narsalarni idrok etadi va uni tasvirlar, g'oyalar

va his-tuyg'ularga aylantiradi, so'ngra yangi ma'lumotlar va biz allaqachon bilgan narsalar o'rtasidagi aloqani hosil qiladi. Xotiralash jarayoni shunday bo'ladi – yangi eski bilan birlashadi. Yangi so'z yoki tushunchani siz allaqachon bilganingiz bilan birlashtirsangiz, miya o'z vaqtida topish va eslab qolish osonroq bo'ladi.

### **2. Iboralarni eslab qolning.**

Iboralarni eslab qolish juda muhim, ammo ingliz tili, boshqa har qanday til singari, nafaqat tushunchalar to'plami, balki odamlar bilan muloqot qilish va o'z fikrlarini bildirishda foydalanadigan vositadir. Matnda muayyan so'zning qanday ishlatilishiga misollar toping. Misollar yordamida iboralarni eslab qolish mumkin.

### **3. Nafaqat so'zni, balki uning yonidagi so'zlarni ham yozing.**

### **4. Rasmlardan foydalaning**

So'zning ma'nosini eslab qolish uchun kichik rasmlarni chizish yoki topish orqali ularni yodda saqlash osonlashadi.

Bizning miyamiz vizual ma'lumotlarni yaxshiroq o'qiydi. So'zning ma'nosini aks ettirgan kulgili rasmi chizing, shunda siz uni tezroq eslab qolasiz.

### **5. Hikoyalar yozing**

Ingliz tilini o'rganuvchilar ko'pincha yangi so'zlar juda ko'p ekanligidan shikoyat qiladilar va ularni eslab qolish qiyindek tuyuladi. Siz so'zlarni tezda o'rganish uchun ishlatishingiz mumkin bo'lgan bitta usul mavjud. Ingliz tilidagi barcha so'zlar kiritilgan har qanday, hatto kulgili hikoyani yozing. Uni batafsil tasavvur qiling. Hikoyalarni, ayniqsa, g'alati voqealarni osongina eslaymiz. Bu so'zlarni kulgili uslubda birlashtirish orqali hikoya tuzsangiz so'zlarni yodda saqlash yanada osonlashadi.

### **6. Antonim va sinonimlarni eslang**

Qarama-qarshi ma'noga ega so'zlarni (antonimlarni) va o'xshash ma'noga ega so'zlarni (sinonimlarni) juft qilib yodlang. Biz shunga o'xshash va qarama-qarshi narsalarni tezda eslaymiz, chunki miya ular orasida aloqa o'rnatadi.

### **7. Bir so'zni tarkibiga ko'ra ajratish**

So'z nimani anglatishini taxmin qilish uchun ildizlar, suffiks va prefikslardan foydalaning.

## 8. Asosiysi vaqt

Xotiralash jarayonlarini o'rganuvchi psixologlar narsalarni tez va uzoq vaqt yodlab olishning yaxshi usuli bor deb ta'kidlashadi. Yangi so'zni taniganingizdan so'ng uni ishlating. 10 daqiqadan so'ng uni yana ishlating. Bir soatdan keyin yana. Ertasi kuni qaytadan. Keyin bir hafta davomida bu so'z ishtirokida gaplar tuzing. Shundan so'ng, uni eslashga harakat qilishingizga to'g'ri kelmaydi – yangi so'z boyligi siz bilan abadiy qoladi [2,1].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, chet tillarini o'rganish takomillashgani sari ulardagi yangi so'zlarni yodlashning ham yangicha uslublari paydo bo'lmoqda. Shuningdek, yangi so'zlarni yodlashda ularning etimologiyasi, ya'ni kelib chiqishi hamda talaffuzi ham muhim ahamiyatga ega. So'zlearning paydo bo'lish tarixini o'rganuvchi fan bu etimologiyadir. Ushbu fan haqida ma'lumot va ko'nikmalarga ega bo'lish ham so'zlarni yodlash jarayonidagi qiyinchiliklarni biroz yengillashtirishi mumkin. So'zlearning talaffuzini esa ko'proq eshitib qaytarish ham so'zni yodda saqlab qolish samaradorligini oshiradi. Faqat bu bilan cheklanib qolmasdan turli mavzulardagi kinolar hamda musiqalar tomosha qilishingiz, tinglashingiz tilni o'zlashtirish qobiliyatizingizni sezilarli darajada rivojlantiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Madinabonu Shokirova " INGLIZ TILINI O'RGANISHDA YANGI SO'ZLARNI YODLASHDAGI QIYINCHILIKLARNI BARTARAF ETISH" 2022. (24-sahifa)
2. O'tkir Umarov "INGLIZ TILIDAGI SO'ZLARNI YODLASHNING 7 SAMARALI USULI" 2021(1-sahifa)
3. Shohruh Mirzo Rahmonov "So'z yodlash sirlari" Istiqlol Nuri nashriyoti.Tashkent-2015.(22-sahifa)
4. Makhmudova G.B. The Development of Scientific Theories of Metaphor Translation from the Cultural Point of View. International Journal on Integrated Education 6 (5), 329-332